



## HOZIRGI YOSHLAR NIGOHIDA OILA QURISH...?

**M. Utepbergenov**

*Psixologiya fanlari doctori, Dsk;*

**D.I. Allayarov**

*2-kurs magistranti*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI, Nukus shahar.*

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlar oila qurishgacha, oila qurish va undan keyingi davrlarda oila psixologiyasi bilimlari yetishmasligi, har bir davrda qanday psixologik o'zgarishlari bo'lishi o'rganiladi. Hozirgi yoshlarning hayoti va oilaviy hayotga qanday ko'z bilan qarashi haqida gap ketadi. Bo'lg'usi kuyov-kelin nikohgacha va nikohdan keyingi burchlari, nimalarga e'tibor berishlari haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, muhabbat, nikoh, oila, mas'uliyat, konflikt, orzular, baxt.

## STARTING A FAMILY IN THE EYES OF TODAY'S YOUTH...?

**Abstract:** The article examines the lack of knowledge of family psychology before and after family formation, and what psychological changes occur in each period. It talks about the life and family life of today's youth. It gives information about the duties of the future bride and groom before and after marriage, what they should pay attention to.

**Key words:** Youth, love, marriage, family, responsibility, conflict, dreams.

Bilamizki oila muqaddas, oilalik bo'lish mas'uliyatni, sodiqlikni, qiyin-chiliklarga bardoshli bo'lishni talab etadi. Hozirgi yoshlar orasida oila qurishga bo'lgan munosabat har xil ko'rinishga kelgan. Yigitlarimiz orasida ikki xil tushuncha mavjud: birinchisi, erta uylanish kerak, erta farzandlik bo'lasan, boshing ikki bo'lsa topganing ham barakatli bo'ladi. Mas'uliyatli bo'lib barcha yaxshi kunlarga ayoling bilan erishasan. Ikkinchisi, kechroq oila qurish kerak, oilali bo'lishga, oila boqishga tayyor bo'ganingda uylanish kerak deb hisoblashadi. Xo'sh sizning fikringiz qanaqa? Menimcha bu insonning dunyoqarashiga, xarakteriga bog'liq tushuncha. Har ikki holat ham kelajakni o'zlari xohlagandek talqin qilishadi, shuning uchun kimdir erta, yana kimdir kech oila quradi. Oila qurish oldidan yigit-qiz o'z juftini topishga harakat qiladi. Har bir inson o'ziga xos xarakterga ega, va shu xakteri asosida o'ziga ma'qul juftini izlaydi. Yigitlar qizlarning tashqi ko'rinishiga juda e'tiborli bo'lishadi, chiroyli qizlarni ko'rsa yoqtirib qolishadi. Aslida nimaga e'tibor berish kerak? degan savol tug'iladi: Chiroygami yoki aqlligami? chiroy o'tkinchi hisoblanadi biologik isbotlangan. Aqlli umr yo'ldosh joyi kelganda erkakka nisbatan aqlli harakat qilsa erkak bunga jidolmaydi. Shuning uchun unisi hammas, bunisi hammas. Erkak qaysi ayolning oldida xotirjam, o'zini yaxshi his qiladigan va uning oldida bo'lishni xohlasa shu ayolni yonida





bo'lishi kerak. Qizlarimiz esa har tomonlama yetuk, jasur, kelishgan, butun qalbi bilan sevadigan va bir so'zli yigitlarga e'tiborli bo'lgani ma'qul.

Hozirgi yigit va qiz muhabbati juda zaiflashib bormoqda. Yoshlar uchun sevgi-muhabbat asosida oila qurish ikkinchi darajali bo'lib bormoqda. Birinchi o'rinda to'ydan keyingi hayoti qanday bo'lishi, moddiy tomondan to'la-to'kis bo'lishi, qiynalmay hayot kechirishi bo'lib qolmoqda. Bir tomondan to'g'ridek tuyilishi mumkin, ammo yashash uchun barcha narsang bor-u er-xotin o'rtasida sevgi-muhabbat bo'lmasa – bu oila abadiy bo'lmaydi. Bir-biriga ko'ngil qo'yib oila qurgan yoshlar bir-birini sevib, mehr-e'tibor berib, bir-birini har qanday holatda tushinib, hurmat asosida hayot kechiradilar. Hayotning baland-pastiga birgalikda bardosh berib, o'zlari istashgan hayotni quradilar. Orzulari bir bo'lib shu orzularini ro'yobga chiqarish uchun birdamlikda-birgalikda harakat qiladilar.

Ko'pchilik yoshlarimiz sevgi-muhabbat asosida, ikkalasi birgalikda niyatlar qilib oila qurishmoqda. „Hamma narsa niyatga bog'liqdir“ deyilgan Qur'oni karimda. Men ko'plab mahallalarda bo'lganman, u yerlarning ko'pchilik yigitlari voyaga yetib oila qurish haqida gap ketganda: javob sifatida „hali uyimni zo'r qilib remont qilishim kerak, moshina olishim kerak keyin to'y qilaman“ degan javobni olasiz. Bu degani yillar davomida faqat mana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun yigitlar katta mehnatlar qilishadi. Agarda qo'lida tayyor ishi bo'lmasa chet ellarga ketib ishlashyapti. Va qilgan niyatiga yetyapti ham, ko'p yillar davomida chet ellardan qaytib kelgan yigitga oila a'zolari bo'g'usi kelin topib qo'yishadi. Yigit va qiz uchrashib korishadi, bir-biriga ma'qul kelib 30 kun ichida to'y qilishadi. Qarabsizki, baxti oila! To'ydan keyin kelin va kuyov bir-birini yanada yaxshiroq bilib boshlashadi. Xalqimizning gapi bor „haqiqiy sevgi to'ydan keyin bo'ladi“ bu bir tomondan to'g'ri, ko'plab ota-bobolarimizdan eshitganmiz: ayrimlar bo'lg'usi umr yo'ldoshini to'yi kuni ko'rganlari va ular juda baxtli oila bo'lib yashashganlar. Lekin hozirgi zamon yoshlari aql, dunyoqarashi jihatdan juda zamonaviy bo'lib ketishgan. Hali bir-birini yaxshi bilib olmagan yigit va qiz bunday tez fursatda oila qursa Xalq og'izaki ijodida aytilganidek **to'yinish davridan** keyin bir-birini tushunmovchilik muammolari kelib chiqib natijada ajralib ketish hollari ko'paymoqda. Hozirda ko'pchilik yigit-qizlar bir-birini yaxshilab bilib olishgandan keyin to'y qilishni ma'qul ko'rishadi. Bundan tashqari moddiy tomondan baquvvat oila qizi yoki yigiti bilan oila qurishni birinchi o'ringa chiqarib qo'yishgan. Sevgi-muhabbat tuyg'usini shu unsurlarga qarab uyg'otib olishaveradigan yoshlarimiz ham yo'q emas. Bu ham aqlli qaror hisoblanadi. Yoshlarimiz oila haqida qanchalik ko'p bilimlarga ega bo'lishsa, hayotiy tajribalarni ko'rib, eshitib shular asosida o'zlari uchun ijobiy xulosalar chiqarishsa kelgusida oilasi har tomonlama yetuk va mustahkam bo'lardi.

Xalqimiz og'izaki ijodida yillar davomida avloddan avlodga oila qurishgacha va undan keyingi hayot haqida ko'plab bilimlar, ma'lumotlar yetib kelgan. Bunda yigit va qiz o'rtasida nikoholdi va nikohdan keying davrlar juda oddiy tushuntiriladi:





- **Ochiq bo'lish!** - bu davrda yigit va qiz bir-biriga barcha ijobiy hislatlarini ko'rsatishadi, ya'ni o'zining qanday yaxshi inson ekanligini ochiq oshkor qiladi. Bu davr 6 oy yoki 1,5 yil davom qilishi kerak.

- **To'yinish!** - bu ikkinchi bosqich to'ydan keyin boshlanadi. Bu davrda yigit va qiz bir-birini har tomonlama bilib olishadi.

- **Dushmanlik!** - bu uchinchi bosqich hisoblanadi. Yigit va qiz birinchi va ikkinchi bosqichdan o'tgandan keyin bir-biriga ma'qul kelmaydigan taraflari ko'rina boshlaydi va konflikt kelib chiqqa boshlaydi. Bunday vaziyatlar ko'pincha ochiq bo'lish bosqichi kam vaqt bo'lganda ham kelib chiqishi mumkin. Yosh oila bu davrga kelib ajrashib ketish hollari ham bo'lmoqda.

- **Ko'nikish, moslashish!** - bu to'rtinchi bosqichda er-xotin ongli ravishda bir-biriga moslashishadi, muammolarni birgalikda hal qilishni o'rgana boshlaydi.

- **Do'stlik!** - bu beshinchi bosqichda er-xotin bir-biri bilan ahil-inoq hayot kechira boshlaydi, barcha voqealarni birgalikda bajara boshlaydi.

- **Haqiqiy muhabbat!** - oxirgi bosqichda er-xotin bir-birisiz yasholmaydigan, borgan joyidan bir-birini izlaydigan bo'lib qolishadi.

Bu kabi juda muhim bilimlarni, ma'lumotlarni balog'at yoshiga yetgan yoshlarga va oila qurish arafasidagi yoshlarga oila psixologiyasi fani beradi. Agar bo'lg'usi kuyov va kelinlar quyidagi kabi bilimlarga, ma'lumotlarga ega bo'lsalar turmush abadiy va go'zal bo'lar, har xil tushunmovchiliklarga birga barham beradigan, turmushning qiyinchiliklarini birgalikda yengib o'tadigan va sabrli bo'lib yaxshi-yomon kunlarni birgalikda o'tkazadigan bo'lishardi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, hozirgi yoshlarimizga oila psixologiyasi bilimlari berib borilsa, er-xotin vazifalari, burchlari tushuntirib borilsa, oila muqaddasligi uqtirilsa va ota-onaga hurmat, farzandlik burchi zimmasidaligi tushintirib borilsa oila abadiy bo'lardi. Oila juda chiroyli bo'lardi, yashashda mazmun faqat oila a'zolarining bilan bo'ladi. Oilang notinch bo'lsa hech nima tatimaydi, shunday ekan har bir yosh avlodga oila sirlari haqida bilimlar kerak bo'ladi. Har xil tushunmovchiliklar, muammolar sabab oiladagi farzandlarni otasidan yoki onasidan ayirib er-xotin bir-biri bilan ajralib ketishlar bo'lmas edi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. „Oila psixologiyasi“. (Shoumarov G'. B. tahriri ostida). Tosh.2000y
2. „Oila ilmi“. (T. Sodiqova). Tosh.2018 y
3. Xalq og'zaki ijodlari.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)
6. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

